Kafillik shartnomasining umumiy shartlari bayon qilingan shartnoma
(Uchinchi shaxs kafilligi)

1. ATAMALAR VA TUSHUNTIRISHLAR

1.1. Ushbu kafillik shartnomasining umumiy shartlari(keyingi o‘rinlarda “Umumiy shartlar”) O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksining 8, 292, 354, 366, 370-moddalari va Elektron tijorat to‘g‘risidagi qonun talablari asosida ishlab chiqildi va quyidagi tushunchalar va atamalar qo‘llaniladi:

1.1.1. **Kreditor** – “Hamkorbank” ATB;

1.1.2. **Qarz oluvchi** –kredit shartnomasi(umumiy va maxsus shartlar) bilan tanishib tegishli tartibda kredit munosabatlariga kirishgan tadbirkorlik subyekti yoki tegishligicha o‘zini o‘zi band qilgan jismoniy shaxs;

1.1.3. **Kafil** – Kreditor oldida Qarz oluvchi olgan kredit mablag‘larini shu jumladan foiz va boshqa to‘lovlari bilan birga qaytarilishi uchun birgalikda(solidar) javobgar bo‘lgan jismoniy yoki yuridik shaxs;

1.1.4. **Taraflar** – Kreditor va Kafil;

1.1.5. **Kredit shartnomasi** – Qarz oluvchi tomonidan tegishli tarzda imzolangan/tasdiqlangan kredit ajratishning umumiy shartlari va maxsus shartlari birgalikda;

1.1.6. Kafillik shartnomasi – Qarz oluvchiga ajratilishi belgilangan kredit mablag‘larini qaytarilishini ta’minoti bo‘lgan kafillik shartnomasining umumiy shartlari va maxsus shartlari birgalikda.

2. Shartnoma predmeti

2.1 Kafil kafillik shartnomasining maxsus shartlarida ko‘rsatilgan Qarz oluvchining bankdan olgan kredit qarzining ta’minoti sifatida o‘zining solidar tarzdagi kafilligini taqdim etadi.

2.2 Kafillik shartnomasining maxsus shartlar bayon qilingan shartnomada ko‘rsatilgan Qarz oluvchining kredit mablag‘larini o‘z vaqtida oyma oy qaytarish to‘g‘risidagi majburiyatini bajarmaganda yoki lozim darajada bajarmaganda, “Kafil” “Kreditor”ning birinchi talabiga binoan kredit bo‘yicha to‘lovlar, unga hisoblangan penya va foizlar hamda kredit majburiyatini o‘z muddatida bajarish bilan bog‘liq xar qanday xarajatlarni shuningdek so‘zsiz tarzda to‘lash majburiyati va javobgarligini o‘z zimmasiga oladi.

2.3 “Qarz oluvchi” kafillik bilan ta‘minlangan majburiyatni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda “Kafil” va “Qarz oluvchi” “Kreditor” oldida solidar javob beradilar.

3. Kafilning huquq va majburiyatlari

3.1 Kafil quyidagi huquqlarga ega:

3.1.1 kafillik shartnomasining umumiy qoidalarini imzo qo‘ymasdan oldin tanishib chiqishi uchun tizim orqali mustaqil tarzda yuklab olib yoki kreditor xodimlariga murojaat qilgan holda o‘zi bilan olib ketish;

3.1.2 kafillikka oid qonun hujjatlarida belgilangan talab va qoidalar to‘g‘risida kreditordan maslahatlar olish;

3.1.3 shartnoma bo‘yicha qarz oluvchi uchun to‘lovlarni ixtiyoriy tartibda amalga oshirish;

3.1.4 kreditorga to‘langan summaga foizlar to‘lashni va qarzdor uchun javobgarlik munosabati bilan ko‘rgan boshqa zararlarini to‘lashni qarzdordan talab qilish;

3.1.5 Mazkur kafillik shartnomasida belgilangan nizoni sudgacha hal qilish usullarini, shu jumladan muzokaralar o‘tkazish orqali, qo‘llash.

3.2 Kafilning majburiyatlari quyidagilar:

3.2.1 qarz oluvchi tomonidan kredit shartnomaga asosan kreditning oylik to‘lov muddati kelganida agar kereditor tomonidan shu kunning o‘zida oylik to‘lovlar to‘lanmagan taqdirda, kredit majburiyatlar kafilning barcha (har qanday) bank hisob raqamlaridan shu jumladan plastik kartalaridan shartnomadan kelib chiqadigan hamma majburiyatlarni qoplash uchun pul mablag‘larini akseptsiz to‘lov talabnomasini qo‘yish orqali hisobdan chiqarish (shu jumladan, neustoyka va boshqalar ham) huquqini shartnomaga muvofiq kreditorga taqdim etadi;

3.2.2 Shartnomaning mazkur bandi kafilning banklarda ochilgan hisob raqamlaridan pul mablag‘larini akseptsiz hisobdan chiqarishga asos bo‘lib hisoblanadi.

3.2.3 Kreditor oldida Qarz oluvchi bilan baravar hajmda javob berish, shu jumladan foizlar to‘lash, qarzni qaytarish bo‘yicha sud chiqimlarini xamda Qarz oluvchining majburiyatini bajarmasligi yoki lozim darajada bajarmasligi tufayli Kreditor ko‘rgan boshqa zararlarni to‘lash, kredit xamda unga hisoblangan penya va foizlarni to‘lash xaqidagi talabini so‘zsiz ijro qilish;

3.2.4 O‘z moliyaviy faoliyati bilan bog‘liq hisobotlar (balans, moliyaviy natijalar, pul oqimlari, debitor-kreditor qarz oluvchilar ro‘yxati)ni har chorakda kreditorga taqdim qilib boradi;

3.2.5 Kafilning moliyaviy holati yoki uning mol-mulkiga oid holatini sezilarli darajada yomonlashtiradigan, uning to‘lov qobiliyatiga ta‘sir ko‘rsatadigan har qanday faktlar haqida, shuningdek, ko‘rsatilgan holatlarning bartaraf etish uchun ko‘rilayotgan choralar haqida kreditorni yozma ravishda zudlik bilan xabardor etish;

3.2.6 Ta‘sis hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritilganda (ro‘yxatdan o‘tish haqida guvohnoma va yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun soliq ro‘yxatiga qo‘yilgani haqida guvohnoma) yoki yuridik shaxslar/yakka tartibdagi tadbirkorlar yagona davlat reyestridagi ma‘lumotlar o‘zgarganda kreditorga o‘zgarishlar davlat ro‘yxatida qayd etilganidan o‘n kalendar kuni davomida tegishli hujjatlarning nusxalarini taqdim etish va ko‘rsatilgan o‘zgarishlar davlat ro‘yxatida qayd etilgani aks ettirilgan reyestrdan ko‘chirmalarni taqdim etish;

3.2.7 Kafil kafillik shartnomani maxsus shartlarini tegishli tartibda imzolash/tasdiqlash orqali, FKning 296-moddasiga muvofiq, qarz oluvchining majburiyatlari har qanday uchinchi shaxsga (huquqiy vorisga, affillangan shaxsga yoki boshqalarga) o‘tgan taqdirda ham, yangi qarzdor uchun javobgar bo‘lishga mazkur badga asosan **oldindan so‘zsiz rozilik bergan hisoblanadi.**

3.2.8 Kafilning pul mablag‘lari bo‘lmasa yoki yetarli bo‘lmasa, kredit bo‘yicha to‘lovlar va unga hisoblab yozilgan foizlar, peniyalarni likvidli mol-mulki bilan to‘lash;

3.2.9 “Kafil” O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasining “Mas‘uliyati cheklangan hamda qo‘shimcha mas‘uliyatli jamiyatlar to‘g‘risida”gi qonunlari talabida mazkur shartnoma yirik bitim hisoblangan taqdirda “Yirik bitimni tuzish to‘g‘risida”gi jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig‘ilishi qarorining haqiqiyligi, qonunchilikda belgilangan tartibda o‘tkazilganligi, unda ishtirok etgan ishtirokchi yoki ta‘sischilarning imzolari haqiqiyligini kafolatlaydi;

3.2.10 Kafillik bilan ta‘minlangan majburiyat to‘liq bajarilmagunga qadar boshqa banklarda hisob varaq ochgan taqdirda 3 bank ish kunida Kreditorga xabar berishi shart.

4. Kreditorning huquq va majburiyatlari

4.1 Kreditor quyidagi huquqlarga ega:

4.1.1 qarz oluvchi tomonidan kredit shartnomasi bo‘yicha majburiyatlar bajarilmaganda, qarz oluvchi va kafildan majburiyatlar bajaralishini shartnoma hamda amaldagi qonun hujjatlari talablari doirasida talab qilish;
4.1.2 kafilning moliyaviy holatini faoliyat olib borayotgan manzilga borgan xolda tahlil etish va monitoring o‘tkazish;
4.1.3 kafil tomonidan shartnoma bo‘yicha majburiyatlar bajarilmaganda yoki lozim darajada bajarilmaganda, kafilning bankdagi hisob raqamlaridan, shu jumladan plastik kartalaridan akseptsiz tartibda shartnomaga muvofiq to‘lash kerak bo‘lgan summalarni hisobdan chiqarish.

4.2 Kreditorning majburiyatlari quyidagilar:

4.2.1 kafilning roziligisiz kafillik bilan ta‘minlangan asosiy majburiyat bo‘yicha javobgarligini oshirmaslik. Bunda mazkur shartnomaning tegishli bandlarida kafil tomonidan oldindan berilgan rozilikka asosan amalga oshirilgan o‘zgarishlar mustasno;
4.2.2 kafil qarzdorning kreditor oldidagi majburiyatlarini bajarganda, kreditor qarzdorga bo‘lgan talablarini tasdiqlovchi hamma hujjatlarini hamda ushbu talablarni ta‘minlaydigan huquqni kafilning so‘roviga asosan topshirish;
4.2.3 kredit shartnomasi bo‘yicha Qarz oluvchi tomonidan muddati o‘tkazib yuborilgan qarzdorlik yuzaga kelganda, Kafil bilan har qanday aloqa bog‘lash usullaridan, shu jumladan elektron aloqa vositalaridan yoki boshqa usullardan foydalanib, Kafilga muddati o‘tkazib yuborilgan qarzdorlik yuzaga kelganligi haqida xabar berish;
4.2.4 qarz oluvchi kafillik bilan ta‘minlangan majburiyatni bajarmaganligi sababli Kafilning Kreditordagi hisobvarag‘idan akseptsiz tartibda mablag‘ hisobdan chiqarilganda, Kreditor ushbu mablag‘ hisobdan chiqarilgan sanadan boshlab keyingi ish kunidan kechiktirmagan holda Kafilning hisobvarag‘idan qancha miqdordagi mablag‘ qanday sabablarga asosan va kimning foydasiga chiqarilganligini ko‘rsatgan holda xabarnoma yuborish.

5. Kafil tomonidan shartnoma bo‘yicha bajarish kerak bo‘lgan majburiyatlar tartibi va muddatlari

5.1 Kreditordan shartnomada ko‘zda tutilgan xabarni olgan kafil bu haqda qarz oluvchiga ma‘lum qilishi va unga xabarnomaning nusxasini taqdim etishi mumkin.
5.2 Kafil mazkur shartnoma imzolanganidan boshlab Qarz oluvchi bilan birgalikda kreditning oylik to‘lov muddati kelishi bilan kreditorga kredit summasi, kreditdan foydalanganlik uchun foizlar va boshqa barcha to‘lovlarni amalga oshirish majburiyatini o‘z zimmalariga oladilar.
5.3 Kafil tomonidan kafillik shartnomasini umumiy shartlarini bandma band to‘liq tanishib, o‘rganib chiqadi va e‘tirozlari bo‘lsa yozma tarzda kreditorga murojaat qiladi. Kafil kafillik shartnomasini maxsus shartlarini tegishli tarzda tasdiqlagan/imzolaganligi shartnoma shartlariga e‘tirozlari yo‘qligini anglatadi.
5.4 Majburiyatlarni bajargan kafilga, kreditorning ushbu majburiyat bo‘yicha tegishli bo‘lgan huquqlari, kafil kreditorning talabini qancha hajmda qanoatlantirgan bo‘lsa, shuncha hajmda o‘tadi.
5.5 Kafil tomonidan majburiyatlar bajarilganidan so‘ng kreditorga kafil yozma ravishda murojaat qilganda, bir bank ish kuni davomida majburiyatlar bajarilganligini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishga majbur.

6. Tomonlarning javobgarligi

6.1 Taraflar mazkur o‘ziga yuklatilgan shartnoma bo‘yicha va qonunchilikda belgilangan majburiyatlari yuzasidan javobgardirlar.

6.2 Mazkur kafillik shartnomasi bilan tartibga solinmagan normalar qonunchilik xujjatlari asosida tartibga solinadi.

7. Shartnomaning kuchga kirishi, o‘zgartirish va bekor qilish tartibi

7.1 Ushbu shartnomada kafillik shartnomasining umumiy shartlari bayon qilingan bo‘lib kafil tomonidan mazkur shartnomaning maxsus shartlari mazkur shartnomada belgilangan usullarda imzolangan/tasdiqlanganidan so‘ng bir butun kafillik shartnomasi hisoblanadi. Maxsus shartlarni imzolash kafil tomonidan Biometrik identifikatsiya (Face ID) tizimidan ijobiy tarzda o‘tish va uning o‘z nomidagi mobil telefon raqamiga borgan bir marttalik SMS xabarni tegishli tarzda tasdiqlash orqali yoki maxsus shartlar bayon qilingan shartnomani shaxsan imzolash orqali amalga oshiriladi.

7.2 Shartnoma kafillik shartnomasining maxsus shartlarini kafil tomonidan imzolanganidan so‘ng Kreditor tomonidan kredit mablag‘lari Qarz oluvchiga haqiqatda o‘tkazib berilgan paytdan boshlab kuchga kiradi va taraflar tomonidan majburiyatlar to‘liq bajarilgunga qadar amal qiladi. Kafillik shartnomasining umumiy shartlari bayon qilingan shartnoma va maxsus shartlari bayon qilingan shartnoma birgalikda yaxlit kafillik shartnomasi bo‘lib hisoblanadi va taraflarga huquq majburiyatlarni vujudga keltiradi.

7.3 Kafilning mulkchilik shakli, tashkiliy-huquqiy shakli va boshqa ro‘yxatdan o‘tish ma‘lumotlari o‘zgarganda, kafilning xuquq va burchlari yangidan vujudga kelgan kafil (yuridik shaxs)ga o‘tishi munosabati bilan, shartnomaning kolgan shartlari o‘z kuchida qoladi.

7.4 Mazkur shartnomada Kafillikning umumiy shartlari bayon qilingan bo‘lib taraflar tomonidan kafillik shartnomasining maxsus shartlari mazkur shartnomada ko‘rsatilgan usulda imzolangan/tasdiqlanganidan so‘ng ushbu umumiy shartlar qonuniy kuchga kiradi va umumiy+maxsus shartlar yagona kafillik shartnomasi deb hisoblanadi. Shartnoma kafil tomonidan Biometrik identifikatsiya (Face ID)+SMS orqali imzolangan/tasdiqlnganidan so‘ng Kafil tomonidan bank tizimi orqali tasdiqlangan shartnoma nusxasini mustaqil tarzda yuklab olishi yoki maxsus shartlar bayon qilingan shartnomani shaxsan imzolaganidan so‘ng imzolangan shartnomaning bir nusxasini olib ketishi mumkin bo‘ladi. Umumiy shartlar esa bankning rasmiy WEB saytida saqlanadi.

7.5 Kafillik shartnomaning umumiy shartlariga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish kreditor tomonidan bir taraflama amalga oshiriladi. Ushbu o‘zgartirishlar amalga oshirilgunga qadar ajratilgan kreditlarga tadbiq etilmaydi. Qonun xujjatlaridagi imperativ tusdagi va ortga qaytish kuchi bilan qabul qilingan o‘zgartirishlar bundan mustasno.

Kafillik shartnomaning umumiy shartlariga kiritilgan o‘zgartirishlar Bankning rasmiy WEB saytiga joylanadi va eski taxrirdagi umumiy shartlar o‘zgartirilmagan ravishda qaysi davrlarga amal qilinishi ko‘rsatilgan xolda bankning rasmiy WEB saytning o‘zida saqlanadi. Kafillik shartnomaning maxsus shartlari belgilangan qismiga kiritiladigan har qanday qo‘shimcha va o‘zgartirishlar taraflarning kelishuviga asosan yozma shaklda yoki qonunchilikda belgilangan har qanday shaklda tuziladi va taraflar tomonidan imzolangan/tasdiqlangan paytdan boshlab kuchga kiradi.

7.6 Qarz oluvchi – yuridik shaxsning bo‘linishi yoki qayta tuzilishi, yoki qarz oluvchi – yakka tartibdagi tadbirkoring vafot etganida ularning huquqiy vorisiga o‘tadi. Kafilning majburiyatlari

xam yuqoridagi tartibda amalda o‘tadi.

7.7 Kredit shartnomasi bo‘yicha huquq va majburiyatlar qarz oluvchining affillangan shaxslariga o‘tganda ham kafillik majburiyatlari amal qiladi.

7.8 Kafillik shartnomasi quyidagi hollarda bekor bo‘ladi:

a) kafillik shartnomasi bilan ta‘minlangan asosiy majburiyat to‘liq bajarilganda;

b) kafillik bilan ta‘minlangan majburiyatlar bekor bo‘lganda;

c) kafilning roziligisiz javobgarlikni kuchaytirishga yoki uning uchun noxush oqibatlarga olib keladigan tarzda kafillik shartnomasining maxsus shartlari bayon qilingan shartnomaga bir taraflama o‘zgartirish kiritilganda;

d) kredit majburiyatlarini bajarish muddatlari tugagan kundan boshlab bir yil mobaynida kafilga nisbatan kreditor da‘vo qo‘zg‘atmagan taqdirda.

8. Korrupsiyaga qarshi kurashish

8.1 Tomonlar, ularning affillangan shaxslari, xodimlari yoki boshqa ishtirokchilari ushbu shartnoma shartlarini bajarishda ikkinchi tomonning qaror qabul qilishiga ta‘sir o‘tkazish maqsadida bevosita yoki bilvosita pul mablag‘lari, qimmatliklar yoki xizmatlar taklif qilishi, berishi, taqdim etishi taqiqlanadi.

8.2 Tomonlar, ularning affillangan shaxslari, xodimlari yoki boshqa ishtirokchilari ushbu shartnoma shartlarini bajarishda qaror qabul qilishiga ta‘sir o‘tkazish maqsadida shartnomaning boshqa ishtirokchilari tomonidan bevosita yoki bilvosita pul mablag‘lari, qimmatliklar yoki xizmatlar taqdim etish bo‘yicha taklifini rad qilishi lozim.

8.3 Agar shartnoma ishtirokchilarida ushbu shartnoma shartlarini bajarish bilan bog‘liq korrupsion harakat sodir etilganligi to‘g‘risida ma‘lumot, shubha, shubhaga asos bo‘luvchi dalilga ega bo‘lsa, bu to‘g‘risida ikkinchi tomonga yozma shaklda xabar berish majburiyatini oladi.

8.4 Xabarni olgan tomon haqiqatda korrupsion harakat sodir etilmaganligini yoki sodir etilmasligi to‘g‘risida tasdiqqa ega bo‘lgunicha ushbu shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishni to‘xtatib turish huquqiga ega.

8.5 Pora berish evaziga ikkinchi tomon vakilini, affillangan shaxsini, xodimini yoki shartnomaning boshqa ishtirokchilarini shartnoma shartlarini bajarishda o‘ziga og‘dirib olgan tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararlarni qoplab berish majburiyatini oladi.

9. Boshqa shartlar

9.1 O‘z majburiyatlarini buzgan taraf shartnomada ko‘zda tutilgan majburiyatga qo‘shimcha ravishda boshqa tarafga yetkazilgan zararni qoplashni o‘z zimmasiga oladi hamda O‘zbekiston Respublikasining qonun talablariga asosan javobgar bo‘ladi.

9.2 Kafil shartnoma bo‘yicha pul majburiyatlarini barcha mol-mulki, aktivlari va bank hisob raqamlaridagi hamma pul mablag‘lari yordamida bajarishini ma‘lum qiladi va kafolatlaydi. Kafil kredit shartnomasi bo‘yicha qarzdorning kreditor oldidagi jami qarzlarini, shu jumladan kredit, kreditga hisoblangan foizlar, neustoykalar, haqiqiy zarar, boy berilgan foyda, sud xarajatlari, ijro yig‘imi, qarzdorlikni undirish uchun 3-shaxslarga to‘langan pullar va boshqa summalar bo‘yicha to‘liq miqdorda solidar tartibda javobgar hisoblanadi.

9.3 Taraflarning bir-biriga jo‘natadigan har qanday xabar, talabnoma va ma‘lumotlari yozma shaklda bo‘lishi lozim. Agar oluvchiga bunday xabar, talabnoma va ma‘lumot shartnomada

ko‘rsatilgan manzil bo‘yicha xat tashuvchi tomonidan yetkazilgan, topshirgani ma‘lum qilingan buyurtma xat sifatida jo‘natilgan, faks, xat, pochta yoki elektron manziliga muvofiq elektron pochta orqali, elektron manzil yoki faks raqami orqali jo‘natilgan bo‘lsa, bunday xabar, talabnoma yoki ma‘lumot zarur tartibda jo‘natilgan, deb hisoblanadi. Shuningdek, pochta xabari/ma‘lumoti ko‘rsatilgan manzil bo‘yicha oluvchining yo‘qligi belgisi bilan pochtadan qaytgan hollarda ham u yetkazilgan, deb hisoblanadi.

9.4 Kafil bilan aloqa bog‘lash usuli: Kafillik shartnomasining maxsus shartlari bayon qilingan shartnomada ko‘rsatib o‘tilgan rekvizitlar, shu jumladan cheklanmagan holda kafilning yuridik manzili, telefon raqami hisoblanadi.

9.5 Kreditor bilan aloqa bog‘lash usuli: mazkur shartnomaning XIII bobida ko‘rsatib o‘tilgan rekvizitlar, shu jumladan cheklanmagan holda 0 800 1 200 200 hamda 1256 (pullik) raqamlar.

9.6 Kredit shartnomasi bo‘yicha kreditor huquqlarining boshqa shaxsga o‘tkazilishi kreditorning shartnoma bo‘yicha huquqlari ham boshqa shaxsga o‘tishiga olib keladi.

9.7 Mijozga bank xizmatini taklif qilish maqsadida ushbu shartnomaning amal qilish muddati davomida, shuningdek shartnoma muddati tugagandan so‘ng 1 yil mobaynida mijozning har qanday manbalardagi ma’lumotini olib qayta ishlagan holda taxlil o‘tkazishga mijoz o‘z roziligini beradi.

10. Maxfiylik

10.1 Shartnomani tuzish va bajarish vaqtida taraflar bir-biridan olgan barcha ma‘lumotlar maxfiy axborotlar deb tan olinadi.

10.2 Shartnomani tuzish va shartnomadan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarish chog‘ida boshqa tarafning tijorat siri hisoblangan maxfiy axborotlar va ma‘lumotlarni axborot egasining yozma roziligisiz oshkor qilmaslik majburiyatini oladi. Mazkur talab shartnomaning amal qilish muddatiga hamda shartnoma muddati tugagan vaqtdan boshlab 3 yil davomida amal qiladi. Ushbu talablarni buzgan taraf buning oqibatida ikkinchi tarafga yetkazilgan barcha zararni to‘liq hajmda qoplaydi.

10.3 Kreditor o‘z huquqlari va manfaatlari yoki ularni himoya qilishi maqsadida kreditorga kafil to‘g‘risidagi har qanday ma‘lumotlarni uchinchi shaxslarga oshkor etish (topshirish) uchun so‘zsiz roziligini bildirgan hisoblanadi.

10.4 Kafil kreditorga shartnomada ko‘rsatilgan yoki shartnoma tuzilishi va bajarilishida kreditorga taqdim etilgan kafilning barcha ma‘lumotlari bilan ishlash va topshirishga mazkur shartnomaga asosan roziligini tasdiqlaydi. Shu jumladan, shartnoma bo‘yicha huquqiy vorislik tartibida kreditorning huquq va majburiyatlari boshqa shaxsga o‘tganda, ularni uchinchi shaxsga topshirishga ham rozilik beradi. Kreditor bunday ma‘lumotlarni uchinchi shaxslarga taqdim etishi kafilning qonun bilan muhofaza qilinadigan bank va boshqa sirlarining buzilishi bo‘lib hisoblanmasligiga mazkur shartnomaga binoan roziligini bildirgan hisoblanadi.

11. Fors – major holatlari

11.1 Yengib bo‘lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlari - bu taraflarning irodasi, xohishiga bog‘liq bo‘lmagan tabiat hodisalari (zilzila, ko‘chki, bo‘ron va hokazo), ijtimoiy-iqtisodiy holatlar (urush holati, qamal, davlat manfaatlarini ko‘zlab import va eksportni taqiqlash va boshqalar), xalqaro, banklararo va Bankning elektron to‘lov hamda ta‘minot tizimidagi nosozlik, Bankning

dasturiy ta‘minot tizimiga qilingan tahdid (hujumlar) sababli yuzaga kelgan sharoitlarda taraflarga majburiyatlarni bajarish imkonini bermaydigan favqulodda, oldini olib bo‘lmaydigan va kutilmagan holatlardir.

11.2 Fors-major holatlari yuzaga kelgan vaqtda taraflar ushbu holatlar bartaraf etilguniga qadar shartnomaviy majburiyatlarini bajarishdan ozod bo‘ladi. Fors-major holati 90 kun mobaynida bartaraf etilmagan taqdirda shartnoma bekor qilinishi mumkin.

11.3 Fors-major holatlari boshlanganligi yoki yakunlanganligi haqida bir taraf ikkinchi tarafni 3 ish kuni ichida bu haqda yozma ravishda xabardor qilishi shart. Xabarnomalar barcha aloqa vositalari orqali yuborilishi mumkin.

12. Nizolarni hal qilish tartibi

12.1 Taraflar mazkur shartnomani bajarish vaqtida yuzaga kelgan kelishmovchilik yoki nizolarni muzokara yo‘li bilan hal etadilar. Taraflarning bir-birlariga talabnoma va/yoki ogohlantirish xatlari bilan murojaat qilib muhlat berilishi nizoni muzokara yo‘li bilan hal etish chorasi sifatida baholanadi. Ogohlantirish xati va/yoki talabnomaga ikkinchi tarafning javob bermasligi, rad javobi berishi nizoni tinch yo‘l bilan hal etish imkoni bo‘lmaganligining asosi hisoblanadi.

12.2 O‘zaro kelishuv imkoniyati bo‘lmaganda, huquqi buzilgan taraf tomonidan yuborilgan talabnoma yoki ogohlantirish xatiga ikkinchi taraf mazkur talabnoma yoki ogohlantirish xatida ko‘rsatilgan muddat ichida javob berishi lozim.

12.3 Talabnoma yoki ogohlantirish xati tarafga shaxsan topshirish, elektron pochta manziliga yuborish yoki pochta aloqa xizmati orqali buyurtma xat bilan yuborish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

12.4 Kelishuv yo‘li bilan hal etilmagan nizolar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda kreditorning filial/bxo si joylashgan hududdagi sudda hal etiladi.

12.5 Shartnoma bajarilishida taraflar mazkur shartnoma shartlariga hamda O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga tayanishadi.

13. Kreditorning rekvizitlari

Kreditor:
Manzil: Andijon shahar Bobur shox ko‘chasi 85 uy
X.r: 16103000500000083001
MFO: 00083
INN: 200242936